

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.20.30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAZZAKOVA NARGIS YULDASHEVNA

**JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA OILAVIY
MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi aftoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological sciences**

Razzakova Nargis Yuldashevna

Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi.....3

Раззакова Наргис Юлдашевна

Динамика изменений семейных отношений в условиях модернизации общества29

Razzakova Nargis Yuldashevna

Dynamics of changes in family relations in the context of modernization of society.....59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works64

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.20.30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAZZAKOVA NARGIS YULDASHEVNA

**JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA OILAVIY
MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PHD/S77 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsba.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Latipova Nodira Muxtarjanovna
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matibayev Tashpulat Boltaboyevich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Nurmatova Mukarram Axmedovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**«Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini
o'rGANISH markazi**

Dissertasiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «6» sentabr kuni soat 9.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel: (71) 232-60-34; (71) 232-61-04, e-mail: info@dsba.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ma'muriy binosi, 11-qavat, 1104-xona).

Dissertasiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№368 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel: (71) 232-60-34; (71) 232-61-04.

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil «21» avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil «21» avgustdaggi 21/2 raqamli reestr bayonnomasi).



M.B.Bekmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

T.M.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahon aholisi 8,17 milliarddan ziyod kishini tashkil etadi. Shundan 1,8 mlrd oila qurbanlar bo‘lib, hozirda oilaviy munosabatlarni tadqiq etish orqali oila institutini mustahkamlash ishi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzida o‘rtacha oila hajmi taxminan 4,5 kishini, shu jumladan, ota-onalar va bolalarni tashkil qiladi¹. Biroq, oila institutini mustahkamlashda er-xotinning oiladagi mavqeい, ularning o‘zaro bir-birini tushunishi, hissiy yaqinligi, oiladagi o‘rni, shaxslararo va oilaviy munosabatlar, o‘zaro ta’sir darajasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga tabiiy zaruriyat bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning yetakchi xorijiy ilmiy markazlari va oliv ta’lim muassasalarida oila, xususan, oiladagi munosabatlar barqarorligini ta’minalash omillarini tadqiq qilishga tegishli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Globallashuv davrida oilaviy munosabatlarda bolalar va yoshlar turmush tarzi milliy va xalqaro darajadagi qiyosiy tahlili, davlat, nodavlat va xususiy sektorning oilaga xizmat ko‘ratishi va hamkorlikning samaradorligi, oilalarni qo‘llab-quvvatlash usullari va mexanizmlari, oilaning tarixiy qonuniyatları, demografik funksiyalarini zamonaviy jarayonlarga mutanosib tarzda transformatsiyalashuviga oid maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash, unda sog‘lom muhitni yaratish, oila farovonligiga erishish orqali yoshlarni milliy qadriyatlariga adekvat munosabatlarini shakllantirish va barqarorlashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur normariv-huquqiy asoslar yaratildi. «Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, «Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat» g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish»² konseptual g‘oya negizida oila mustahkamligini ta’minalashga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda jadal sur’atlar bilan zamonamiz rivojlanib bormoqda. Bu esa insonlar o‘rtasida yangicha ijtimoiy muhitni qaror toptirish, zamonaga mos intellektual, dunyo hamjamiatida umume’tirof etilgan tendensiyalarga xos oilaviy munosabatlar o‘rnatish va uning o‘zgarish dinamikasini sotsiologik tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla

¹ <https://www.worldometers.info/world-population/>

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2016. – 56 b.

institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019 yil 11 fevraldagи PQ-4185-son «Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2018 yil 27 iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari³ hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning II. «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» ilmiy tadqiqotlar dasturining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamiyat ijtimoiy hayotidagi ijtimoiy jarayonlar doimiy harakatda bo‘lganligi sababli jamiyat doimiy rivojlanishda buladi. Bunday rivojlanishlar natijasida turli yangilanishlar jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi va modernizatsion sharoitlar yuzaga keladi. Bunday modernizatsion sharoitlar o‘z navbatida oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish mumkin. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish masalasi Sharq uchun doim birlamchi masala hisoblangan. Oila-nikoh munosabatlari Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning asarlaridan o‘rin olgan. Shuningdek, oila, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ta’lim-tarbiya, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi singari ko‘pgina masalalar Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Kaykovusning «Qobusnom», Shayx Sa’diyning «Guliston», «Bo’ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Jaloliddin Devoniyning «Axloqi Jaloli», Muhammad Sa’diy Qoshg‘ariyning «Adab-as solixin» kabi asarlarida mufassal bayon qilingan⁴.

G‘arb mutafakkirlar asarlarida oila sotsiomadaniy hodisa va jamiyatni ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu yo‘nalish antik davr mutafakkirlari Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topgan. F.Bekon, T.Gobbs, I.Kant, M.Veber, E.Dyurgeym, O.Kont, J.Mid, T.Parsons,

³ Nomlari keltirilgan normativ huquqiy hujjatlar dissertatsiyaning adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

⁴ Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti, 1993; Nizomulmulk. Siyosatnomma yoki siyar ul-mulk. – Toshkent: Adolat, 1997; Abu Rayhon Beruniy. 100 Hikmat. – Toshkent: Fan, 1993; Hindiston // Asarlar T.P. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 70. 125. 161; Минералогия: собрание сведений для познания дорогоценостей. – Москва, 2011; Ибн Сино. Дониш-намэ. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. Душанбе. Ирфон, 1980. – С.328; Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу-билик. - Тошкент, Фан, 1972. – Б.299; Кайковус. Қобуснома; Шайх Нажмиддин Кубро. Кўнглим кўзи билан кўрганларим – Тошкент: Адолат, 2001. – Б.89; Шайх Саъдий Шерозий. Гулистон. Тошкент: Абдулла Кодирий номли халқ мероси нашриёти, 1993. – 247 б; Абдурахмон Жомий, (мутаржим: Ш.Шомуҳамедов) F.Фулом, Тошкент, 1971 1971 (غولام غافور (تاشکند سانی -) : جامی الرحمن عبد : امیر شہروردی) ; Алишер Навоий. Махбуб-ул-кулуб.- Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.- Б.36; Ma’naviyat yulduzları (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999; Ҳусайн Войз Кошфиий. Футувватномаи Султоний. Н.Комилов таржимаси. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994. – Б.58.

P.Sorokin⁵ va boshqalar oila-jamiyat munosabatlaridagi o‘zaro ta’sir va o‘zaro manfaatli bog‘liqlik muammolarini tadqiq etib, oila shakllarini turkumlashtirgan. XIX asr oxirlariga kelib, R.Xill, Ch.Kuli, F.Le-Ple va boshqa olimlar katta oilalarning qarindosh-urug‘chilik munosabatlari doirasidan «er-xotinlik» oilasi doirasigacha torayib borishi qonuniyatlarini o‘rganishgan. Oila «sotsial guruhlar»ga mansublik nuqtai nazaridan «alohida xususiyatli birlamchi guruh» sifatida ta’riflanib «nuklear oila» g‘oyasining shakllanishiga asos bo‘ldi. Bundan tashqari U.Jeyms, F.Znaneskiy, U.Tomas, Z.Freydler⁶ shaxs va oila o‘rtasidagi o‘zaro aloqa birlamchi, shaxslararo munosabatlar muammolarini tahlil qilishgan. E.Giddens esa oila instituti turli shakllarining tarixiy munosabatlari, avlodlararo qadriyatlar, sotsiomadaniy vorislikni ta’milanishi, nikoh istiqbollari va uning rivojlanish tendensiylarining nazariy-metodologik asoslarini yaratdi. U.Bek oilaning an’anaviylikdan chekinish va postmodern jamiyatga qadar bo‘lgan tadrijiy rivojlanish jarayonlarini tadqiq etgan. MDH olimlari tomonidan oila instituti ijtimoiy funksiyalar bilan bog‘liq hodisalar rus olimlari A.Antonov, I.Bestujev-Lada, S.Golod, A.Xarchev, V.Yadov, T.Afanasev, V.Medkov, A.Sinelnikov kabi olimlar tadqiqotlarida zamонавиy oilalardagi transformatsiyalashuv holati va yangi tendensiylar qiyosiy tavsiflangan.

Mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida oila instituti, uning etnik xususiyatlari, an’anaviy turmush tarzining madaniy tavsiflari, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlariga doir ilmiy ishlarni alohida ko‘rsatish lozim. Xusan, M.Bekmurodov, T.Matibayev, M.Quronov, A.Xolbekov, A.Umarov, M.Ganiyeva, T.Narbayeva, Sh.Sodiqova, O.Abduaazimov, N.Latipova, M.G‘affarova, U.Sobirova, A.Yunusov⁷ ilmiy tadqiqotlarida o‘zbek oilasi tarixi, oilaviy va jamoaviy turmushning o‘ziga

⁵ Бекон Ф. Новый арганон. //Сочинение в 2-х т. М.: «Мысль» 1978. -С.7-214.; ⁵ Гоббс Т. Философские основания учения о гражданине. Минск: АСТ, Харвест, 2001.-С. 158, 167-168.; Кант И. Логика. Тракты и письма. М.: “Науна-”. 1985. -С. 18.; Вебер М. Избранные произведения. М.: Прогресс, 1990-С. 707-735.; Дюркгейм Э. Самоубийство. Социологический этюд. -СПб.:“Мысль” 1994. -С.237-239.; Конт О. Курс положительной философии. –СПб.: Книжный магазин Т-ва "Посредник",1899.-С 167-231.; Мид Дж. От жеста к символу // Американская социологическая мысль. – М.: МУБиУ, 1996. – С. 213-221.; Пэтэрсон Т., Клиффорд Г. Америка на пути к господству. внешняя политика США С 1939 г. С.-401.; Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Политизда» 1992-С 373-423. Хилл Р. Современные тенденции в теории семьи. Социальные исследования. Вып.4. М. 1970. .-С124.; Кули Ч.Х./ РАН. ИНИОН. Центр социал. научн.-информ. исследований. Отд. социологии и социальной психологии; Сост. и переводчик В. Г. Николаев; Отв. ред. Д.В. Ефременко. – М., 2019. – 234 с. – (Сер.: Теория и история социологии).; Ле-Пле Ф. Основная конституция человеческого рода: С очерком жизни и деятельности авт. М.: К.П.Победоносцев, 1897. XLII, 232, IV.

⁶ Джеймс У. «Психология». Лызлов А. В., вступительная статья, 2018 © Издание, оформление. ООО Группа Компаний «РИПОЛ классик», 2018. С-17; Знанецкий. Ф. Исходные данные социолога // Американская социологическая мысль. М. 1994. С 87-90.; Томас У., Ф.Знанецкий. Методологические заметки // Американская социологическая мысль. М. 1994. С – 52-56; Фрейд З. Психология бессознательного «Просвещение» М.: «Просвещение», 1990. -С. 447; Гидденс Э. Социология – М.: “Эдиториал УРСС” 1999.-С-704; Бек У. Общество риска на пути к новому модерну. – М.: «Прогресс-Традиция» 2001.- С. 96; Антонов А.И. Кризис семьи и родительства // Проблемы родительства и планирования семьи. - М.: 1992 – С. 65; шу муал. Микросоциология семьи: методология исследования структур и процессов. / шу муал. – М.ИД “Nota BENE”, 1998. – С. 35; Бестужен-Лада И.В. Альтернативная цивилизация- М. «Nota Bene» 1998 – С. 85; Голод С.И. Семья и брак историко-социологический анализ” 1998.- С. 272; Харчев А.Г., Мацковский М.С. Современная семья и ее проблемы – М. “Статистика”. 1995. С-223; В.А. Ядов М: “Дорбосвет”. 1999. С. 596.; Медков В.М. Демография: Учебное пособие. “Учебники и учебные пособия”. - Ростов-на-Дону: "Феникс", 2002. - 448 с

⁷ Nomlari keltirilgan olimlarning asarlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

xosliklari, urf-odat va marosimlar, an'anaviy oila shakllari borasida keng qamrovli ma'lumotlar jamlangan.

Bundan tashqari, O.Musurmonova, G'.Shoumarov, A.Saidov, X.Mamatdaliyeva, N.Lutfullayeva, M.Umarov, F.Otaxo'jayevlar nikoh va oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oila va nikoh munosabatlarning huquqiy jihatlarini tadqiq etishgan. Ushbu mutaxassislarining ilmiy izlanishlarida oila barqarorligi, uning mustahkamlash omillari, er-xotin munosabatlari o'rinni olgan.

Ushbu tadqiqotlarda oila tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar, oilaviy nizolar, oiladagi muhit, oilaviy demografiya jarayonlari ilmiy o'rganilgan. Biroq, yangi zamonaviy taraqqiyot bosqichidagi oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasi, oila institutini barqarorligini ta'minlashdagi muhim omillari tadqiqot obyekti sifatida kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oly ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasini tahlil qilish orqali oila institutini yanada rivojlantirish borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oila va nikoh muammolarining sotsiologik tadqiq etilishidagi zamonaviy nazariy yondashuvlar va konseptual g'oyalarni tahlil qilish;

oila institutini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalarini tadqiq etish;

jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasini qiyosiy o'rganish;

oila instituti transformatsiyasi jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish;

Yangi O'zbekistonda farovon oila mustahkamligining huquqiy mezonlarini yoritish;

oilaviy munosabatlarda milliy qadriyatlarning o'zgarish tendensiyalarini asoslash;

mustahkam oilaviy munosabatlarni shakllantirish jarayonlaridagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti O'zbekistonning yangi zamonaviy taraqqiyot bosqichidagi oila institutining barqarorligini ta'minlash omillari hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, tarkibiy-funksional yondashuv, kuzatuv va ijtimoiy so'rov, kontent-tahlil, «Big Data» tahlili, umumlashtirish va konkretlashtirish, qiyosiy va tizimli tahlil kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oiladagi barqarorlikni ta'minlash, sog'lom hayot jarayonlarini targ'ib qilish, farzandlar o'rtasida ta'lim-tarbiyani sinkretlash, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni

mustahkamlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy treninglarning integratsiyada mahalla segmentida «mehr ziyosi» ijtimoiy platformasining tashkil etilishi, (ijtimoiy muhofaza, maslahat kengashi, mehnat bozoriga yo‘naltirilgan ta’lim onlayn kurslari) sotsiologik asoslantirilgan;

«oilaning baxtlilik indeksi» asosida oilaviy munosabatlarning milliylikka asoslangan bir maqsad yo‘lida «oila hamjihatligi» ijtimoiy formulasi (farovonlik, uzoq-umr, ekologiya, insoniy munosabatlar, o‘zaro hurmat va e’tibor, ochiq muloqot, qiziqishlar, maqsadlar, moliyaviy barqarorlik) ishlab chiqilgan;

zamonaviy oila munosabatlarining ijtimoiy himoyasini ta’minalashda milliy identiklikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, milliy an’analarni saqlash, milliy tarixning o‘rganilishini ta’minalash, milliy segmentdan foydalanish kompetentligini mustahkamlash sotsiologik asoslantirilgan;

jamiyatdagi yangi tendensiyalarni kuzatish, internet va raqamli texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlardan foydalanish negizida har bir oila o‘zini-o‘zi qo‘llab-quvvatlashi, istiqbolga intilishi va rivojlanishi (oilada moliyaviy rejalashtirish, ma’naviy rivojlanish va ta’lim, barqaror daromad manbalarini yaratish, ijtimoiy ta’lim va qo‘llab-quvvatlash, savdo va xizmatlar sohasida faoliyat) oilaviy munosabatlarda kambag‘allikni oldini olishda puxta ishlab chiqilgan strategiyalarni qo‘llash masalasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatning modernizatsiyalashuvida hozirgi zamon ustuvor qadriyatining o‘lchov ko‘rsatkichlari tahlili amalgalashuviga oshirilgan. O‘zbekistonda oilaviy munosabatlar va ulardagi muammolar yechimi topilishida professional ijtimoiy ish faoliyatining konseptual asoslari ko‘rsatib berilgan. Oilalarda kechayotgan transformatsion jarayonlarning sotsial indikatorlari aniqlangan;

oilaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasida oila fenomenining nazariy-metodologik asoslari tizimli tadqiq etilib, ularga jamiyatda ijtimoiy ish sohasini rivojlantirish, oilaviy munosabatlar transformasiyasiga yo‘naltirilgan davlat siyosatining strategik maqsadlariga mutanosib holda ko‘maklashish, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oila institutining adaptasiyasi xususiyatlarini sotsiologik tadqiq etish asnosida ularning sotsial integratsiya samaradorligini aniqlash omillari ochib berilgan;

oilaviy munosabatlarni postinstitusional sotsial kuzatib borishning xorij tajribasiga asoslanib, oiladagi individlarni ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinib, pilotaj hamda keng qamrovli sotsiologik so‘rovnomalari tuzish qoidalariга rioya etilgani, har bir savol nazorat savoli bilan tekshirish ta’minalangani, fokus-guruh usulini o‘tkazishda standartlashgan protseduraga asoslanilgani, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi sotsiologiyaga oid jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, o‘tkazilgan

so‘rovlар, intervular va ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani bo‘yicha olingan natijalarning vakolatli idora va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada ilgari surilgan g‘oyalar va nazariy xulosalardan sotsiologiya, oila sotsiologiyasi, ijtimoiy ish sohasida o‘tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma’lumotlar va xulosalar yoshlар, o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, nikoh-oilaviy munosabatlar maslahatchilarini, ijtimoiy ish xodimlari faoliyatida qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga oid nazariy konsepsiyalarning ilmiy muomalaga kiritilganligi, «Oila va gender», «Yoshlar sotsiologiyasi», «Bolalar va yoshlarning ijtimoiy himoyasi va ta’minoti», «Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va bolalar», «Ijtimoiy ish nazariyasi» kabi fanlarni takomillashtirish, ijtimoiy ish va sotsiologiya mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv kurslari dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ko‘maklashish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy sotsiologik taklif va tavsiyalar asosida:

oiladagi barqarorlikni ta’minlash, sog‘lom hayot jarayonlarini targ‘ib qilish, farzandlar o‘rtasida ta’lim-tarbiyani sinkretlash, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy treninglarning integratsiyada mahalla segmentida «mehr ziyosi» ijtimoiy platformasining tashkil etilishi, (ijtimoiy muhofaza, maslahat kengashi, mehnat bozoriga yo‘naltirilgan ta’lim onlayn kurslari) sotsiologik asoslantirilgan ma’lumotidan «Mahalla» xayriya jamoat fondi tomonidan «O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-son qaroriga 5-ilova «Yo‘l xaritasi» I-bob «Temir daftari», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» hamda ehtiyojmand oilalar bilan ishlash bo‘yicha 10-bandidagi «Hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tomonidan alohida yuritilayotgan tarqoq platformalar o‘rniga Mahallaning yagona platformasini joriy qilish» bandini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondi Respublika boshqaruvining 2023-yil 6-martdagi №02-01-29-1-soni ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda oiladagi barqarorlikni ta’minlash, sog‘lom hayot jarayonlarini targ‘ib qilish, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, farzandlar o‘rtasida ta’lim-tarbiyani barqarorligini ta’minlashda ijobiy samaradorlikka erishilgan;

«oilaning baxtlilik indeksi» asosida oilaviy munosabatlarning milliylikka asoslangan bir maqsad yo‘lida «oila hamjihatligi» ijtimoiy formulasi (farovonlik, uzoq-umr, ekologiya, insoniy munosabatlar, o‘zaro hurmat va e’tibor, ochiq muloqot, qiziqishlar, maqsadlar, moliyaviy barqarorlik) ishlab chiqilganlik ma’lumotidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik

institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Oila, bolalar va yoshlar» deb nomlangan XIV bobini tayyorlashda, shuningdek, konstitutsiyaning 76 va 78-moddalari loyihasini tayyorlashda metodologik baza sifatida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 27-iyuldaggi №04/10-10-51-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Qo‘mita tomonidan taqdim etilgan takliflar inobatga olinib, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV «Oila, bolalar va yoshlar» deb nomlangan bobidagi 76-moddasida «Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliliga asoslanadi» degan norma shakllantirilgan;

zamonaviy oila munosabatlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashda milliy identiklikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy ta’lim va madaniyatni rivojlanтирish, milliy an’analarni saqlash, milliy tarixning o‘rganilishini ta’minlash, milliy segmentdan foydalanish kompetentligini mustahkamlash sotsiologik assoslantirilganlik ma’lumotidan «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan «Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni, maqsadi va ustuvorliklari» mavzusidagi telefon so‘rovida o‘tkazilgan chuqurlashtirilgan intervyu savollarini tayyorlashda foydalanilgan. («Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2023-yil 27-iyundagi №01-16/105-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oilalar transformatsiyalashuvi jarayonida bir tizimdan ikkinchisiga o‘tishda oilalarda, aholi orasida huquqiy madaniyatni oshish dinamikasini va oilaviy munosabatlarni tasniflashga qaratilgan intervyularni samarali tashkil etishga erishilgan;

jamiatdagi yangi tendensiyalarni kuzatish, internet va raqamli texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlardan foydalanish negizida har bir oila o‘zini-o‘zi qo‘llab-quvvatlashi, istiqbolga intilishi va rivojlanishi (oilada moliyaviy rejalashtirish, ma’naviy rivojlanish va ta’lim, barqaror daromad manbalarini yaratish, ijtimoiy ta’lim va qo‘llab-quvvatlash, savdo va xizmatlar sohasida faoliyat) oilaviy munosabatlarda kambag‘allikni oldini olishda puxta ishlab chiqilgan strategiyalarni qo‘llash masalasi ochib berilganlik ma’lumotidan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan «O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida mustahkam oilani shakllantirishning ahamiyati» mavzusida turkum tadbirlar ssenariylarini tayyorlashda hamda ushbu tadbirlar doirasida ishtirokchilar bilan blits so‘rovlarni o‘tkazishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2023-yil 23-iyundagi №02-01/845-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, oilalar kambag‘allik darajasini aniq tashxislash, jamiyatdagi yangi tendensiyalarni kuzatish, internet va raqamli texnologiyalar orqali yangi imkoniyatlardan foydalanish negizida har bir oila o‘zini-o‘zi qo‘llab-quvvatlashi, istiqbolga intilishi va rivojlanishi masalalarini aniqlashga qaratilgan loyihalarning texnik vazifalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining Dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (5 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi tavsiflab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Oila institutining fundamental asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Ushbu bobda oila fenomenini konseptual tadqiq etishning ahamiyati, oila va oilaviy munosabatlarga oid nazariy-metodologik yondashuvlar va oilani shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalari ijtimoiy voqelikni barpo etishdagi ahamiyati nazariy tahlil etilgan. Jumladan, oila – bu murakkab ko'p qirrali, mukammal funksiyali yacheyska bo'lib, shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Uning funksiyalari nafaqat aholini ko'paytirish, balki yosh avlodni jamiyatda qabul qilingan huquqiy, ijtimoiy-madaniy, axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalashni ham nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti aytganidek, «*Globallashuv jarayonida ijtimoiy munosabatlarning modernizatsiyasi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy iqlimning o'zgarishi oila institutiga bevosita ta'sir qilmoqda*»⁸. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, jamiyat va davlat muhofazasidadir. «*Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi*»⁹, degan norma va Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning nutqidagi ushbu so'zlari dissertatsion tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi.

Oilaviy munosabatlarning vujudga kelishi borasida dastlabki yondashuvlar diniy-mifologik yondashuvlar bo'lib, dastlabki oilaviy munosabatlar Odam Ato a.s. va Momo Havodan boshlangani mustahkam e'tiqod sifatida qaraladi. Genetika, biologiya fanlari qonuniyatlariga ko'ra, har bir inson individual tarzda boshqa birovni takrorlamaydi. Ikki jinslar, ya'ni er va xotinning ixtiyoriy ittifoqidan oila, instituti shakllanadi. Ya'ni, ajdodlar «davomchi»lari bo'lmish avlodlar vujudga keladi. Yana shuni ham aytish lozimki, insonlar abadiy yashamaydilar keksaygan va vafot etgan

⁸ Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash-xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir 1-jild. -Toshkent: "O'zbekiston". 2017-yil. 5 bet.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: "O'zbekiston". 2023. 30-b.

insonlar o‘rniga yangi avlod keladi, yangi insonlar esa asosan oilada tug‘iladilar. Demak, jamiyatning yagona manbasi bu oilalardir. Agar sotsiologiya fani jamiyatni o‘rganuvchi fan bo‘lsa, oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiya uchun muhim sotsial institut hisoblanadi.

«Avesto»da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va uni bekor qilishning qonun-qoidalari bat afsil qayd etilgan. Asarning maxsus boblarida Axura Mazda yoki Zardo‘shtning kelin-kuyovlarga da’vati, murojaatlari keltirilgan. Shu nuqtai nazardan oilaning funksiyalari nafaqat aholini ko‘paytirish, avlodlar davomiyligini ta’minlash, balki yosh avlodni jamiyatda qabul qilingan huquqiy, ijtimoiy-madaniy, axloqiy meyorlar asosida tarbiyalashni ham nazarda tutadi. Islom dinida oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi. «Nahl» surasining 72-oyatida qayd etilishicha, «Alloh sizlar uchun o‘zlarigizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘illar va nabiralar paydo qildi»¹⁰.

1-jadval

Oila institutiga oid ilmiy maktab namoyandalarining ilmiy nazariyalarini

Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyandalari	Yillar	Ilgari surilgan nazariyalar
Sharq sotsiologiya ilmiy maktabi	Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Rizouddin ibn Faxruddin va boshqalar	873-1501	Oila, nikoh, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi
G‘arb sotsiologiya ilmiy maktabi	O.Kont, G.Spenser, M.Veber, E.Dyurkgeym, R.Merton, T.Parsons, R.Merton, E.Giddens, B.Farber va boshqalar	1820-1931	Oila ijtimoiy institut sifatida, davlat jamoat va diniy tashkilotlar bilan o‘zaro integrasiya jarayonlariga kirishi
MHD ilmiy maktabi	I.Gerasimov, A.Xarchev, N.Shimin, A.Volkov, L.Barnxil, L.Gozman, Y.Aleshina, S.Darmodexin va boshqalar	1937-2002	«Oila implitsit nazariyasi» – biror-bir hodisa to‘g‘risida fikrlar kategoriylarining konseptlar tizimi, oilani ijtimoiy anglash jarayonini sotsiologiya orqali oila va uning a’zolari tomonidan idrok etishni tavsiflash
O‘zbekiston milliy sotsiologiya maktabi	M.Bekmurodov, T.Matibayev, A.Xolbekov, A.Umarov, M.Ganiyeva, T.Narbayeva, Sh.Sodiqova, O.Abduaazimov, N.Latipova, M.G‘affarova, A.Yunusov, U.Sobirova va boshqalar	1992-2022	«Oila» so‘zining o‘zbek tilida 5 xil lug‘aviy ma’nosini borligi: 1) oila – er-xotin, ularning bolalari va yaqin tug‘ishganidan iborat birga yashovchi kishilar majmui; 2) xonardon – umumiy ma’noda birlashgan jamoa; 3) turmush o‘rtoq, er, rafiqqa, xotin ma’nolari; 4) oila nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh, uning a’zolari ro‘zg‘or birligi, o‘zaro yordam, ma’naviy mas’uliyati va moddiy javobgarlik bilan bir-biriga bog‘langan; 5) oila jamiyatning bir bo‘lagi – boshlang‘ich guruhi, ya’ni er-xotin, qarindoshchilik aloqalari ittifoqi asosida tuzilgan shaxsiy hayotning muhim shakli tarzida belgilanishi.

¹⁰ Qur’oni Karim. (Tarjima va izohlar mual. Alouddin Mansur). –Toshkent: “Cho‘lpon”. 2007. 87-b.

G‘arb sotsiologiyasida oila institutini pozitivistik yondashuv asosida o‘rganish dastlab O.Kont, G.Spenser va M.Veberlar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, «O.Kont xususiy mulkka vorislik qilish huquqi tarafdori bo‘lib, u mulkka egalik qilgan oila jamiyat oldida javobgar, deb hisoblagan. Bunda oilaga mulkni asosiy saqllovchi omil sifatida qarab, mulkni ijtimoiylashtirishga qarshi bo‘lgan. Shu bois O.Kont oila, davlat va diniy tashkilotlar ijtimoiy institutlar sifatida o‘zaro integratsiya jarayonlardagi, ularni jamiyatdagи bajaradigan vazifalarini o‘rgangan». Zero, jamiyatga ijtimoiy organizm sifatida yondashilsa, unda 3 ta asosiy tizimlar: 1) tartibga soluvchi; 2) hayot uchun mablag‘ (resurs)lar ishlab chiqaruvchi; 3) taqsimlovchilardan tashkil topgan.

2-jadval

Oilani tadqiq etishda institutsional yondashuvning 3 yo‘nalishi

Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyandalari	Ilgari surilgan nazariyalar
Yangi institusional	J.Uayt, Sh.Loer, K.Yaodenis	Yangi institusional meyorlarning oila hayotiga ta’siri, migratsiya va globalizatsiya sharoitida madaniy oilaviy meyorlarning o‘zaro ta’siri
Noinstitutional	A.Cherlin, E.Burgess	Oilaning deinstitusionalizatsiya jarayonida individlarning shaxsiy hayotini tartibga soluvchi va chegaralovchi muayyan meyorlar, madaniy va ijtimoiy tuzilmalar zaiflashuvni noinstitutional yondashuvda individual ehtiyojlarning oshib borish tendensiyasi
Postinstitutional	S.Knapp, G.Vurmlar	Oila shakllarning xilma-xilligini tan olish. Institusional xilma-xillik rivojlanib, yangi oila shakllarining paydo bo‘lishi

Bunda, oilaning rivojlanish bosqichlarida transformatsiyalashuv qonuniyatları, nuklear oilaning hayot siklining qisqarishi, ya’ni oila kichik guruh sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, oilaviy tizimning sotsial o‘zgarishlari, ya’ni farzandlar ijtimoiylashuvi va ularning oilaviy rollarga kirishishi natijasidagi o‘zgarishlar voqeligi yuz beradi. Ekzogamiya qoidasiga ko‘ra, o‘z oilaviy guruh a’zolari, ya’ni qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh ta’qilangan. Yaqin qarindoshlar o‘rtasida oila qurish amaldagi qonunda ham, shariatda ham mumkin emasligi qayd etilgan. Shu sabab turli omil va vajlarni sabab qilib ko‘rsatib, ikki yoshni majburan nikohlantirish noto‘g‘ri. Buning oqibati tibbiy jihatdan nasl davom etishida o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon etadi.

O‘zbek xalqining oila va oilaviy munosabatlar evolyutsiyasini quyidagi xronologik davrlarga bo‘lish mumkin:

birinchi davr – Islomgacha bo‘lgan davrdagi zardushtiylik va buddaviylik ta’limotlari asosidagi oilaviy munosabatlar;

ikkinchi davr – IX-XII asrlarda, ya’ni Islom dinining kirib kelishi va birinchi renessans davridagi Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, fiqh, shariat qonunlari hamda Sharq mutafakkirlarining ta’limotlari asosida shakllangan oilaviy munosabatlar;

uchinchi davr – XIV-XV asrlar, ya’ni sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan ta’limotlar asosidagi oilaviy munosabatlar;

to‘rtinchi davr – XVI-XIX asrlardagi xonliklar davridagi oilaviy munosabatlar;

beshinchi davr – XIX asr 60 yillari oxiri – 1917-yilning oktyabr davrigacha Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan davrdagi yangi oilaviy munosabatlar;

oltinchi davr – 1917-yil oktyabrdan – 1991-yil avgust oxirigacha Sobiq Ittifoq davridagi mustabid ta’limotlar asosidagi oilaviy munosabatlar;

yettinchi davr – Mustaqillik davri, ya’ni 1991-yildan hozirgi davrgacha mavjud milliy va zamonaviy ta’limotlar assosidagi oilaviy munosabatlar; sakkizinchi, yangi Z avlod davridagi oilaviy munosabatlar.

Xalqimiz ma’naviy dunyosining ajralmas qismi hisoblangan muqaddas Islom dinida ayollarga yuksak darajada hurmat ko‘rsatilgan, ayol sha’ni doimo ulug‘langan. Qur’oni Karim suralaridan biri «Niso» (Ayollar) surasi deb nomlangan va bir qancha boshqa suralarda ayollarning haq-huquqlari va ularga oid masalalar xususida oyatlar nozil qilingan. Bundan tashqari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Kaykovusning «Qobusnomá», Nizomulmulkning «Siyosatnomá», Sa’diyning «Bo‘ston» va «Guliston», Nosir Hisravning «Saodathnomá» kabi asarlarida oila shakllanishi va rivojida ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari talqin etilgan.

Sharq tamadduni oilaga va oilaviy munosabatlarga muqaddas qadriyat sifatida qaragan. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy merosida oila va nikoh, shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar tarbiyasi, ularning burchi masalalari muhim o‘rin tutgan. Mahalla qadim zamonlardan buyon ijtimoiy aloqalar va kishilarning o‘zaro birlashish hududi bo‘lib kelgan. Ushbu noyob tuzilmada, mahalla a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, o‘zaro yordam, ishonch va hamjihatlikni kuchaytirishga xizmat qilishi, bir-biriga hurmat, qo‘llab-quvvatlash va yakdillik bilan harakatlar oilaviy kapitalni shakllantirish orqali, uning barqarorligini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda oilaviy qadriyatlarni tiklash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, farzandlarni tarbiyalashda an’analarni saqlashga yordam berish orqali zamonaviy dunyoda milliy o‘zlikni saqlab qolish davr talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy ta’lim jarayonini yaxshilash, ota-onalarga bolalarni tarbiyalash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni berish, ushbu jarayonda mifik, oila va mahalla o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda oilaviy munosabatlarni rivojlantirish oila a’zolarining ruhiy va jismoniy sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi. Dissertantning fikricha, mahallada oilaviy barqarorlikni ta’minalash, sog‘lom hayotni targ‘ib qilish, farzandlar o‘rtasida ta’lim-tarbiyani sinkretlash, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

Dissertatsianing **«Jamiyatni modernizasiyalash jarayonida oila institutining o‘rni»** deb nomlangan ikkinchi bobida «modernizatsiya» tushunchasining talqini ilmiy ta’riflanib, jamiyatni modernizasiyalash jarayonida oilaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi tadqiq qilingan. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Turkiya, Yaponiya mamlakatlarida oilaning modernizasiyalashuv jarayoni yuzasidan xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil etilgan.

Modernizatsiya – (frans. «Moderne» – eng yangi, zamonaviy) u yoki bu obyektning yangilanishi. Ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlariga emas, balki zamonaviy davriga xosdir. Odamlar xalq bo‘lishidan oldin jamoa bo‘lib yashash zarur ekanligini bilishmagan. Vaqt o‘tishi bilan ular birga yashash lozimligini tushunishgan. Ularning birinchi jamoalari «oila» bo‘lgan. Oila jamoalari asta-sekin rivojlanib, qavm va qabila jamoasiga, millat-elatlarga aylangan.

Zamonaviy oila munosabatlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda va milliy identikligini mustahkamlashda ijtimoiy omillarni tahlil qilish juda muhim. Milliy harakter, mentalitet, o'ziga xoslik, o'zlikni anglash, milliy va diniy mansublik, madaniyat va san'at, ilm-fan rivojlanishi, ayniqsa, axborot texnologiyalarida milliy segmentdan maqsadli foydalanish kompetentligi zamonaviy oila munosabatlarini shakllantirishda alohida o'rin tutmoqda.

Milliy identintiklik – bu shaxsnинг o'ziga xos milliy guruhgа mansublikni his qilishi, o'z madaniyati, tarixi, qadriyatлari va an'analariга bo'lgan ma'naviy bog'liqliк hissi. Bu hissiyot munosabatlarga quyidagicha ta'sir qilishi mumkin:

1) «Oilaviy qadriyatlar» milliy identifikatsiyasi oilaviy qadriyatлarni shakllantirish, oilaviy an'analarni saqlash va oila a'zolarining o'zaro munosabatlariga ta'sir qiladi.

2) «Tarbiya» ota-onalar farzandlarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularga milliy tarix, madaniyat va san'atni o'rgatishadi.

3) «Oilaviy munosabatlar» milliy identifikatsiyasi esa oila a'zolarining o'zaro sog'lom munosabatlarini shakllantirishga, ya'ni oilaviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda oilaviy munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda, ijtimoiy ishning professional faoliyatini konseptual asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish: oilaviy munosabatlardagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini o'rganish orqali oila a'zolarining ehtiyojlarini baholash;

b) Oila a'zolariga yordam berish: oila a'zolariga muammolarni yechishda va ularning munosabatlarini yaxshilashga yordam berish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

v) Oilaviy munosabatlarni rivojlantirish: oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga va rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, oilaviy qadriyatлarni targ'ib qilish.

Oilalar transformatsion jarayonlarini tadqiq etishning sotsial indikatorlari quyidagicha belgilandi:

1) nikoh va ajralish darajasi: nikoh va ajralish darajasining o'zgarishi oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi;

2) oilaviy tarkib: oilaviy tarkibning o'zgarishi, masalan, bir bolali oilalar sonining ko'payishi, oila a'zolarining yashash sharoitidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi;

3) oilaviy daromad va xarajatlar: oilaviy daromad va xarajatlarning o'zgarishi oilalarning iqtisodiy ahvolidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi;

4) oilaviy qadriyatlar: oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi, masalan, hurmat, mehr-muhabbat, sabr-toqat kabi qadriyatlar ahamiyatining o'zgarishi oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilalarning transformatsion jarayonlarni boshidan kechirishi muqarrardir. Oilaviy munosabatlardagi muammolarni yechishda ijtimoiy ishning professional faoliyatining roli juda muhimdir. Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish

ustuvor qadriyat sifatida maydonga chiqadi.

Bu o‘z navbatida, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy adolatni ta’minalash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi davrda barcha davlat va jamiyatlar o‘rtasida turli g‘oya va mafkuralar raqobati avj olmoqda. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatish uchun asos bo‘lgan g‘oya va mafkuraga ega bo‘lishi shart. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebafo qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotidan ajratib, uni tobe, ya’ni manqurtga aylantirib qo‘yadi. Bunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan yot g‘oya va vayronkor mafkuralar ba’zi millat-elatlarning o‘zligini yo‘qotishga qaratilgani kuzatilmogda. Natijada davlatlar hududlarini egallash emas, balki eng avvalo, inson ongini egallashda individlarni bir-biridan ajratgan tarzda o‘z g‘oyalarini singdirish orqali oila instituti parchalanishiga yo‘naltirilganligi ma’lum bo‘lib qolmoqda.

Jahonda «Oila» tushunchasi bilan birga «uy xo‘jaligi» tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma’lumotlar uy xo‘jaliklari bo‘yicha to‘planadi. «Uy xo‘jaligi» birga xo‘jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykadir»¹¹.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, «oilaviy stressni ijtimoiy muhit (vaziyat)ning oila a’zolari imkoniyatlaridan oshib ketgan va ushbu oilaviy qadriyatlar yo‘qotilish xavfiga olib keluvchi turli talablarga nisbatan salbiy hissiyotlar va umumiyy bosim ostida qolish sifatida ta’riflaydi»¹².

Bundan tashqari tadqiqotchilar «oilaviy stressni gomeostaz va oilaning ichki barqarorligini buzuvchi, uzoq muddatli moslashishni talab qiluvchi hamda oila tuzilmasi darajasidagi o‘zgarishlarga olib keluvchi makrovoqe (xavfli vaziyat) sifatida belgilaydi. Faqat ba’zi olimlar oilaviy stressga birlamchi tartibni moslashtirishi zarur bo‘lgan mikrovoqe, deb qaraydi»¹³.

Oilada voyaga etmaganlar nikohini kechiktirish yoki uning oldini olish bo‘yicha – Xalqaro ayollar tadqiqotlari markazi (ICRW) tomonidan quyidagi 5 ta strategiya belgilangani diqqatga sazovor:

- axborot va qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari bilan qizlarga vakolat berish;
- xotin-qizlar, ularning oilalarini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- yosh ota-onalarni jamiyat a’zolari sifatida o‘qitish hamda ularni birlashtirish;
- xotin-qizlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar va siyosatni rag‘batlantirish¹⁴.

Dissertatsiya ishida ijtimoiy hamjihatlilik o‘lchovlarini aniqlash, jamoatchilik fikri orqali uni xaritalashga yoki rejalashtirishga bo‘lgan intilish va amaliy empirik bazasini mustahkamlash uchun «Bolalarini chet tilida o‘qitadigan mакtabга berishning asosiy sabablarini aniqlash» mavzusida anketa so‘rovi asosida sotsiologik

¹¹ Демографический энциклопедический словарь. -М.: “Статистика”. 1985. -C.39.

¹² Stress and the Familie. Vol.1. Coping with Normative Transitions /Ed. By H.I.McCubbing and C/R/Figle/Brunner. –New York: Mazel publishers. 1983. -R.154.

¹³ P.Watzlawick, J.Wickland, R.Frisch. 1974. p-91.

¹⁴ <https://www. icw.org/rosa/issues/child-marriage>

tadqiqot o‘tkazildi. Mazkur sotsiologik tadqiqot mamlakatimizda o‘zbek oilalarida chet tilida ta’lim beradigan muassasani tanlash qanchalik samarali ekanligini aniqlash orqali jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida o‘tkazildi.

Mazkur so‘rovnoma mamlakatimizdagi oilalarda farzandlar tahlil olishi uchun ta’lim muassasasining ahamiyatini aniqlash, bunda yoshlar qaysi yo‘nalishlarga qiziqishi va ularga yaratilgan sharoitlar holatini bilish orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonи ochib berilgan. Mazkur jarayonning natijalari oilani muslahkamlashda ijtimoiy hamjihatlikning pozitiv mohiyati, jamoatchilik fikrining institutlashuvi kabi masalalar tahlil qilingan.


Sotsiologik tadqiqotda respublikamizning turli viloyatlaridan jami 1213 nafar respondent ishtirok etdi. Mazkur so‘rov 2024-yil oktabr oyida o‘tkazildi, unda 18 yosh va undan katta yoshdagi ota-onalar qatnashgan. Jami 1213 nafar respondentlarning katta qismi (46,2%) 30-40 yosh oralig‘ida bo‘lib (560 kishi), bu yoshdagi ota-onalar orasida o‘rtacha yoshdagi kasb va oilaviy faoliyotni e’tiborga olish mumkin. 18-30 yosh oralig‘idagi yosh ota-onalar esa 25,9% (314 nafar)ni tashkil qilib, bu esa yosh bolali oilalar uchun ta’lim va farovonlik muhimligini ko‘rsatadi.

50 yoshdan katta yoshdagi ishtirokchilar 10,1% ni tashkil etib, ularning soni kamroq bo‘lgani ota-onalarning o‘rtacha va katta yoshdagi bosqichdagi vazifalarini aks ettiradi. Bu ma’lumotlar muayyan yosh guruhlarining ehtiyoj va qiyinchiliklarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotda asosan ayollar (83%) qatnashgan, bu esa oilaviy majburiyatlarning ayollarga ko‘proq yuklatilganini namoyon etadi. Erkaklar nisbati kam (17%), bu esa ularning bu kabi so‘rovlarda kam ishtirok etishini yoki oilaviy vazifalarda sust ishtirok etishini anglatadi. Bu jihat oilaviy rollardagi gender tengligi masalalarini tahlil qilishda ahamiyatlidir.

Respondentlarning katta qismi o‘zbeklar (91,6%) bo‘lib, qolganlari Markaziy Osiyo xalqlari va slavyanlardan iborat bo‘lgan (muvofiq ravishda 5,5% va 1,2%). Bu milliy tarkib mintaqaning etnik kontekstiga mos kelib, turli millat vakillari ta’lim va ijtimoiy masalalarni qanday qabul qilishini o‘rganish imkonini beradi. Respondentlarning deyarli ko‘philigi oliy ma’lumotga ega (44,2%), bu holat ta’limga bo‘lgan qiziqishning yuqori darajasini ko‘rsatadi.

1-rasm



1-rasm. “Nima sababdan o‘zbek oilalari chet tilida ta’lim beruvchi maktablarni tanlashadi?”savoliga berilgan javoblari (% hisobida)

Magistratura darajasiga ega bo'lganlar soni 6,8% ni tashkil qilib, respondentlarning aksariyati ziyolilar ekanini, respondentlarning uchdan biri (27,3%) o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu ularning kasbiy tajribasi va malakasi turlicha ekanini anglatadi. Respondentlar yashash xududlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi: 92% (1116 nafar) shaharda, 8% (97 nafar) qishloqda yashovchilar. Aksariyat ishtirokchilar o'zbek tilida ta'lim olishgan (83%), boshqa tilda ta'lim olganlar 14,1% ni tashkil qiladi.

Respondentlarga «Nima sababdan o'zbek oilalari chet tilida ta'lim beruvchi maktablarni tanlashadi?» deb berilgan savolga javoblarni tahlil qilsak, respondentlarning (77 nafari) 6,4 % o'zim chet tilida ta'lim oлganim uchun deya belgilashgan. Bu esa ota-onalarning o'zлari ham aynan boshqa xorij tilida ta'lim oлgani, tilni yaxshi bilishi, farzandini ham aynan shu doirada bo'lishini ma'qul ko'rganini anglatadi. Javoblar orasida – u yerda sifatli ta'lim berishadi, deb (218 nafari) 17,0% javobni qayd etgan. Bunda biz talabchanlik farzand rivoji uchun yaxshi tomonga o'zgarishini anglatса, boshqa tomondan hozirgi globallashuv davrida boshqa tillarni bilish biroz bo'lsa-da ustunlikka ega bo'lishi muhimligini ko'rsatadi.

Respondentlarning (305 nafari) 24,0% oliv o'quv yurtiga kirish imkoniyati oshadi, (631 nafar) 51,7 % esa chet tilini bilish ko'p joyda talab etiladi, deya o'z munosabatini bildirganlar. Bundan o'zbek oilalarida boshqa tilda ta'lim beradigan muassasani tanlashdan maqsad davr talabi ekanligi, aksariyat holatlarda turli yo'nalish va sohalarda til bilish imtiyozli va samarali ekanligi bilan bog'liqligi aniqlandi.

Shuningdek, ayrim holatda diniy qoidalarni amaldagi qonunchilikka «moslashtirish» jarayoni ham sodir bo'lmoqda. Xususan, Germaniyada ko'p xotinlilik noqonuniy hisoblangani bois suriyalik qochoqlar hujjatlarida birinchi xotinni «asosiy», qolganlarini esa «do'st» sifatida qayd etilgan. So'nggi yillarda Yevropada nikohsiz farzand ko'rganlar yoki turmush qurib ajrashganlar soni juda ko'paygan. Xususan, Evropada 64% ona farzandini otasiz tarbiyalamoqda. Bunda, noto'liq (otasiz yoki onasiz) oilada yoki asrab oluvchilar qo'lida o'sgan bolalar to'kis xonadonda ulg'aygan tengdoshlariga nisbatan 3 marotaba ko'proq psixologik muammolardan aziyat chekishi aniqlandi.

Keyingi davrda iqtisodchi, faylasuf, sotsiolog va psixolog kabi olimlarning barchasi inson tarqqiyotining asosiy poydevori sifatida farovonlik, tinch hayot va baxtlilik hissi ekanini e'tirof etib, boshqa hamkor xalqaro tashkilotlar doirasida tadqiq etishmoqda.

«Yangi iqtisodiyot fondi» ushbu indeks New Economist Foundation xalqaro jamg'armasi tomonidan 3 yoki 4 yilda bir marotaba jahon hamjamiyatiga taqdim etiladi.

1. Farovonlik (Wellbeing) – bu ko'rsatkichni aniqlash uchun «Galloп» shkalasidan foydalaniladi. Respondentlardan hayot zinapoyasida 0 dan 10 gacha bo'lgan holatda o'zining hayotdan qoniqjanlik darjasini belgilash talab etiladi. Tanlov natijasida insonlarning subyektiv baxtlilik hissi haqida ma'lumot olish mumkin.

2. O'rtacha umr davomiyligi (Live expextancy) har bir davlat fuqarolar hayotining kutilayotgan davomiyligi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, odamlar u

yoki bu hududda necha yoshgacha yashaydi, qancha umr ko‘rishi aniqlanadi.

3. Ekologik yo‘l (Ecological Footprint) – har bir mamlakatda fuqaro o‘z hayot faoliyati davomida atrof-muhitga qancha zarar yetkazadi. Buning natijasida jahon miqyosida davlatning ekologik yo‘li aniqlanadi¹⁵.

Natijalar orasida tafovut (Inequality of outcomes) – har qanday mamlakatning ichida hudud kesimida farq mavjud. Ya’ni, farovonlik, o‘rtacha umr davomiyligi hamda ekologik yo‘l ko‘rsatkichlari bir hududda boshqa hududga nisbatan farq qilishi tabiiy holdir. Bu holat xalqaro baxtlilik indeksini o‘lchashda inobatga olinadi¹⁶.

«Oila baxtlilik indeksi» va «oilaviy birdamlik» formulasi orqali oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan milliy maqsadga erishish mumkin. Bu formula oilaviy baxtlilikni o‘lchash va oilaviy birdamlikni rivojlantirish uchun asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi.

U quyidagi omillarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1) Iqtisodiy farovonlik: oila a’zolarining moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi;

2) Tug‘ilish: oilada farzandlarning tug‘ilishi, ularning sog‘lom va to‘liq rivojlanishi;

3) Sog‘lom hayot: oila a’zolarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i, sog‘lom turmush tarzini olib borishi;

4) Ta’lim: bolalarni ta’lim olish imkoniyatlari, ota-onalarning ta’lim darajasi va ta’limga bo‘lgan munosabati;

5) Bandlik: oila a’zolarining ish bilan ta’minlanganligi, ish joylarning mavjudligi va ish sharoitlari;

6) Oilaviy qadriyatlar: oila a’zolarining o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va bir-biriga g‘amho‘rlik qilish kabi qadriyatlarga ega bo‘lishi;

7) Baxtlilikni his etish: oila a’zolarining o‘zaro munosabatlaridan, hayotdan qoniqish va baxtlilik hissi;

8) Zamonaviy oila imiji: oilaviy munosabatlarning zamonaviy talablarga moslashganligi, oila a’zolarining o‘zaro hurmat va tenglik asosida munosabatda bo‘lishi.

Bizningcha, «Oilaviy birdamlik» formulasi «Oila baxtlilik indeksi»ning 8 ta ko‘rsatkichini oshirishga qaratilgan milliy maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Bu formulaga oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, iqtisodiy farovonlikni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, ta’lim tizimini takomillashtirish, bandlikni oshirish, oilaviy muammolarni hal qilish, oilaviy birdamlikni mustahkamlash kabilardir. «Oila baxtlilik indeksi» va «oilaviy birdamlik» formulasi muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilishi va yangilanishni talab etadi. Nazarimizda, formula milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirilishi madsadga muvofiq. Mazkur formulaga yangi omillar qo‘silishi mumkin, masalan, ekologik muhit, ijtimoiyadolat, madaniy merosni asrash va kelajak avlodga munosib yetkazish.

So‘nggi yillarda oilaviy hayotga tayyorlash borasida maxsus tadbirlar tashkil

¹⁵ Egamberdiyeva. N., Saidvaliyeva X., Mamanova N. Baxtlilik o‘lchovi. -Toshkent: “Fan”. –2021. 6-b.

¹⁶ O‘hsa asar. 7-b.

qilinsa-da biroq, nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortmoqda. Shu nuqtai nazardan hozirda oilaviy munosabatlar transformatsiyasi bois yoshlarni hayotga tayyorlash zaruriyati paydo bo‘ldi.


«Yangi O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida mustahkam oilani tadqiq etishda sotsiologik imkoniyatlar» deb nomlangan uchinchi bobda mamlakatimizdagi yangicha ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sharoitlarda mustahkam oilani shakllantirish bilan bog‘liq imkoniyatlar o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tomonidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda qayd etilgan erta nikoh va erta tug‘ruqlar, istalmagan homiladorlikning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida sarhisob qilinganda 2024-yilda erta nikoh 300 yaqin bo‘lgan va bu o‘tgan 2023-yilga nisbatan 7 baravarga ko‘paygan. O‘rganishlarda nikohlarning 70 foizida ota-onasababchi ekanligi, 26 foizida erta turmush qurishga sabab sevgi-muhabbat ko‘rsatilgan, 3,4 foizda esa homila bilan bog‘liq ekani qayd etilgan. Qolgan 1,5 foiz holat diniy qarashlar bilan izohlangan.

Bu borada, avvalo mahalla fuqarolar yig‘inlari huzuridagi «Yarashtirish komissiyasi» va «Ota-onalar universiteti» tuzilmalari uchun malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlariga oliy ta’limda tahsil olish uchun qonunchilik doirasida imtiyozlar berishni takomillshtirish va boshqa maqsadli islohotlarni amalga oshirilishi oilaviy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Dissertatsiya doirasida «Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarning o‘zgarish dinamikasini aniqlash» mavzusida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotda respublikamizning 7 ta hududi (Toshkent shahri, Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Xorazm, Jizzax, Buxoro viloyatlari)da yashovchi oilalar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotda 617 nafar 18 yoshdan oshgan respondentlar ishtirok etib, 4 ta anketa yaroqsiz, deb topildi.

2-rasm




2-rasm. «Sizningcha, oilaviy munosabatlarining salbiy o‘zgarishlari qanday?», deb berilgan savolga respondentlarning javoblari (% hisobida)

Hududlarda respondentlarni tanlashda kvotali tanlash usulidan foydalanildi. Natijada, Toshkent shahridan 117 nafar, Samarqand viloyatidan 103 nafar, Namangan viloyatidan 96 nafar, Farg‘ona viloyatidan 55 nafar, Xorazm viloyatidan 127 nafar, Jizzax viloyatidan 58 nafar, Buxoro viloyatidan 61 nafar oilalar tanlab olindi. Tadqiqotda 259 nafar(54%) erkaklar, 358 nafar(46%) ayol respondent ishtirok etdi.

Bunda respondentlarning 22,2% ini 18-24 yoshli, 23,1%ini 25-34 yoshli, 49,2%ini 35- 44 yoshli, 5,5%ini 45-54 yoshli, 9,6%ini 55 yosh va undan katta respondentlar tashkil etdi.

«Sizningcha, oilaviy munosabatlarining salbiy o‘zgarishlari qanday?», deb berilgan savolga javoban respondentlarning 38,7%i bir-birini tushunmaslik, eshitmaslik, hurmat qilmaslik er-xotin o‘rtasidagi salbiy munosabatni qayd etishgan bo‘lsa, 27,7 % moddiy, iqtisodiy, mablag‘ yetishmovchiligi masalasi ham oilani butun bo‘lib ravnaq topishiga nifoq bo‘lishi belgilagan. So‘rovda ishtirok etganlarning 23,4 %i yosh oilaga uchinchi shaxslar aralashuvi, er-xotin o‘rtasiga sovuqchilik solishi, munosabatlarini izdan chiqishi, quda-andalar kelishmovchiligiga sabab bo‘lishi natijasida ajrim holatlarga sabab bo‘lishiga e’tibor berishgan. Demak, oiladagi nizolar, uning salbiy munosabatlarini yuzaga kelishi jamiyatimizda oilalarni buzilishiga sabab bo‘layotgan omil sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lardi.

3-rasm



3-rasm. «Sizningcha, oila a’zolari o‘rtasidagi ziddiyatlarning asosiy sababi nima?» degan savolga respondentlarning javoblari (% hisobida)

Respondetlar oiladagi a’zolar o‘rtasida yuzaga keladigan to‘qnashuvlar, kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning yuqori (33,5%) darajasi sifatida oila a’zolarining biri o‘z hukmini o‘tkazish va hammani bo‘ysundirishga intilishi, deya e’tirof etishgan. Bunda oila boshlig‘i tomonidan boshqa a’zolarga o‘z pozitsiyasida turib, so‘zi, xattiharakatlari va hattoki, kuchi bilan boshqalarni bo‘ysundirishga intilishi namoyon bo‘ladi. 29,3% respondentlar tomonidan esa oila ehtiyojlari uchun kerakli bo‘lgan talablarni qondirishga mablag‘ yetishmasligi, ya’ni moddiy qiyinchiliklar deya belgilashgan. Qatnashganlarning 16,7%i oila a’zolarining bir-biriga e’tiborsizligi va loqaydligini e’tirof etishgan. Bunda oila a’zolarining o‘z yumushlari, ishlari va boshqa turli sabablarga ko‘ra turmush o‘rtog‘iga yoki farzandlariga e’tiborsizligi, loqaydligini qayd etishgan.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda oila va nikoh borasida yuz berayotgan o‘zgarishlar diqqatga sazovor. Zero, oilaning tashkil bo‘lishida asosiy omil – nikoh hisoblanadi. Nikoh – insoniyat tadrijiy rivojlanish davrida paydo bo‘lgan. Bunda jamiyat tadrijiy rivojlanib borishi bilan uning shakli o‘zgarib, mustahkamlanib boraverdi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi


yarmida, 95 ming 300 ta nikoh rasman qayd etildi. Bu o‘tgan yilning xuddi shu davridagi ko‘rsatkichdan 2100 taga kam. Nikohlarning 48,7 mingtasi(51,1%) shahar joylarda, 46,6 mingtasi(48,9%) esa qishloq hududlarida tuzilgan. Ajrimlar soni esa 23,3 mingtani tashkil qilgan. Bu esa o‘tgan yilga nisbatan 800 taga ko‘p. Ya’ni, nikohlar soni kamaymoqda, ammo ajralishlar tobora ko‘paymoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga ajrim bo‘lgan oilalardagi farzandlar soni 30 236 nafar, ajrim yoqasidagi oilalar soni 19 151 ta, ushbu oilalardagi farzandlar soni 20 462 nafarni, noqobil (farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar) oilalar 3 471 tani tashkil etmoqda¹⁷.

Ajralishlarning asosiy qismi — 14,1 ming (60,6%) holat shahar joylarda sodir bo‘lgan. Qishloq hududlarida esa 9,2 mingta (39,4%) ajralish qayd etilgan. Hududlar kesimida Toshkent shahri (1,5 ming), Toshkent viloyati (1,2 ming) va Farg‘ona viloyati (1,2 ming) ajralishlar soni bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallamoqda. Eng kam ajralish esa Navoiy viloyatiga to‘g’ri kelgan(310 ta).

Mazkur holat, ya’ni, nikohdan ajrashishning asosiy sabablari o‘rganilganda xarakteri to‘g’ri kelmaganligi – 18 196 ta (38%), farzandsizlik – 6 721 ta (14%), uchinchi shaxs aralashuvi – 5 709 ta 12(%), nikohlanuvchilarning oilaga tayyor emasligi – 5 735 ta (12%), uzoq vaqt bir oila bo‘lib yashamaganlik – 4 422 ta (9%), moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar – 1 965 ta 4%, migratsiya – 1 454 ta (3%), spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste’moli – 1 459 ta 3%, xiyonat – 1 421 ta (3%), ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta’siri – 947 ta yoki (2%)ni tashkil etganligi qayd etildi.

2021-yil fevral oyida tadqiqot doirasida «Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi bilan hamkorlikda «Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni, maqsadi va ustuvorliklar» mavzusida telefon so‘rovi o‘tkazildi. So‘rovda 408 nafar respondentning javoblaridan foydalanish ta’minlandi.

4-rasm



4-rasm. «Siz moddiy jihatdan mustaqil va o‘zini o‘zi ta’minlaydigan ayollarning hayotiy pozitsiyasiga qanday qaraysiz?», degan savolga respondentlarning javoblari (% hisobida)

Ishtirokchilarning aksariyati hozirgi zamonda ayol mehnat va kasbiy faoliyatning ko‘plab sohalarida o‘zini namoyon qilishi, moliyaviy erkin bo‘lishi mumkinligiga ijobjiy fikr bildirib, 74,1% respondent xotin-qizlar moddiy mustaqil


¹⁷ O‘zbekiston Respublikasining demografik holati. URL: stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59637

bo‘lgan va o‘zini mustaqil ta’minlaydigan xotin-qizlarga ijobiy munosabatda bo‘lishgan. So‘ralganlarning fikricha, bunday nuqtai nazar oila byudjetining oqilona taqsimlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, oilaga (ko‘p darajada) erkak keltiradigan asosiy moliyaviy mablag‘lar oilaning xarajatlarini qoplaydi, ayol esa o‘zini mustaqil ta’minlash orqali erkakning moliyaviy tashvishlarini yengillashtiradi. 15,9% respondent xotin-qizlar o‘z tarbiyasi va an’anaviy turmush tarzi sababli eridan moddiy mustaqil va o‘zini mustaqil ta’minlaydigan ayolning nuqtai nazariga «ko‘proq ijobiy» munosabatni ko‘rsatishgan. Moddiy mustaqil bo‘lgan ayollarga salkam 5% ishtirokchilar salbiy, 3,6% respondentlar esa befarq munosabat bildirganlar. Demak, natijalarga tayanadigan bo‘lsak, aksariyat respondentlarning bergen natijalaridan ko‘rish mumkinki, har bir inson o‘zi mustahkam sarmoyaga ega bo‘lishi va uni maqsadli sarflashga bo‘lgan ehtiyoji mavjud.

«Sizningcha, oila instituti, deganda nimani tushunasiz?» degan savolga respondentlar bergen javoblari tahlil qilinganda, oila masalasida respondentlar juda keng va atroficha fikr yuritib tahlil qilishi ham bu xulosa tasdig‘ini topganini bildiradi. 49,8% oilaviy masalalar bilan shug‘ullanish, undagi har bir vaziyatga alohida mas’uliyat bilan yondashishi aniqlangan bo‘lsa, 34,6 %i – oilaga taalluqli barcha masalalar, mayda va hatto, ko‘rinmas holatlarni oldindan bo‘lsa ham hal qilishga inlishini qayd etgan. 10,8 % – oilalarni o‘qitadigan institut, bilim dargohi sifatida bilishini, 4,8% – bilmayman, degan javobni belgilashgan.

«Sizningcha, bugungi kunda oilaviy munosabatlarda o‘zgarish bormi, bor bo‘lsa qanday?» deb berilgan savolga respondentlarning javobidan ko‘rishimiz mumkinki, oilaviy munosabatlarda transformatsiya jarayonlari yuqori. Sababi 32,4% respondent moddiy yetishmovchiliklar, 28,3 %i esa oila a’zolarining dunyoqarashidagi tafovutlar asosiy sabab sifatida nisbatan yuqori natijalarni bergen. Demak, oiladagi tosh-tarozusi hamda jamiyatdagi ayrim stereotiplar ham undagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. 27,6%i esa mavjud, ma’naviy hayot bo‘yicha nikoh tartiblarida, deb belgilagan. An’analarga sodiq qolib, oiladagi muhitni mo’tadil ushlab turadigan oilalar esa oiladagi munosabatlarda o‘zgarishlar yo‘q, deya 11,7% javob berishgan. Bunda biz urf-odat, an’ana va avloddan-avlodga o‘tib saqlanib kelayotgan tushunchalarni tushunamiz.

5-rasm



5-rasm. «Sizningcha, bugungi kunda oilaviy munosabatlarda o‘zgarish bormi, bor bo‘lsa qanday?» degan savolga respondentlarning javoblari (% hisobida)

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, oilada turli salbiy va nohush vaziyatlar yuzaga kelganda asosan 42 % respondentlar oilada ayollar yon bosishi, bu esa oila mo‘tadilligini saqlashda katta ahamiyat kasb etishini anglatishini aytib o‘tganlar. Milliylikka xos bo‘lgan xislatlardan yana biri erkakning o‘zi va so‘zi qanchalik ahamiyat kasb etishi ushbu natija bilan bog‘liq. Ya’ni, 33,2 % respondentlar javoblarida oila boshlig‘i qaror qabul qilib, oilaning boshqa barcha a’zolari ushbu qarorga bo‘ysunadi, deb hisoblaganlar. Bu esa qolgan oila a’zolari uchun ota, ya’ni oila ustuning roli katta ekanligini ko‘rsatadi. Bunda otaning oilada bir so‘zliligi,adolat bilan har bir masalaga yondashishi, mas’uliyatli hamda ma’naviyatli bo‘lishi darkorligini anglatadi. 12,7 %ida ziddiyatli vaziyatda barcha ishtirokchilar o‘z fikrida qolib, birozdan so‘ng, hammasi vaqt-vaqt bilan o‘z iziga tushishini qayd etishgan. Respondentlarning 11,9%i esa butkul yuqoridagi so‘zimizning teskari talqini, ya’ni oilada er xotiniga yon bosadi deb javob berganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tomonidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 9 milliondan ortiq oila bor. Yiliga o‘rtacha 250–300 ming yangi oila qurilmoqda. Ammo, shu bilan birga, har yili o‘rtacha 45–49 ming ajralishlar ham kuzatilmoqda.

Nikohdan ajrashayotganlarning 4–5 foizini bir yilgacha, 40 foizini esa besh yilgacha bir oila bo‘lib yashaganlar tashkil etmoqda.

Ajrimlar soni 2021-yilda 41 foizga, 2022-yilda 22 foizga ko‘paygan bo‘lsa, 2023-yilda o‘sish sur’ati keskin tushib, 2022-yilga nisbatan atigi 0,8 foizga ko‘paygan (o‘sish sur’ati 2022-yilga nisbatan 27 baravarga kamaygan).

Shu o‘rinda, MDH Davlatlararo statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston nikohlar soni bo‘yicha MDHda birinchi, ajralishlar bo‘yicha esa oxirgi o‘rinda turadi. 2022-yilda O‘zbekistonda har 1000 kishiga nikohlar soni 8,4 tani, ajralishlar soni 1,4 tani tashkil etgan.

2023-yil davomida adliya organlari tomonidan manzilli targ‘ibotlar orqali olib borilgan tushuntirish va profilaktik suhbatlar natijasida qonuniy nikohdan o‘tmasdan birga yashab kelayotgan 30 mingdan ortiq oilalarning nikohi qonuniy ravishda qayd etib berildi.

Natijada, 19 mingdan ortiq bolalarning tug‘ilishi yolg‘iz ona yoki otalikni belgilash tartibida qayd qilinishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldi olindi.

Tug‘ilishlarni yolg‘iz ona tartibida qayd qilinishi holatlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 12 foizga kamayganining o‘zi ham amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini berayotganini ko‘rsatmoqda.

Hozirda tub islohotlardan ko‘zlangan maqsad – oila institutining jamiyatdagi barqarorligini ta’minlash uchun oilalarning iqtisodiy barqarorligi masalasida oqibatlar bilan emas, sabablar (ishsizlik, reproduktiv salomatlik) bilan kurashish lozim. Oilalarning byudjetini bozordagi narxlar konyukturasiga asosan qayta ko‘rib chiqqan holda, farzandlar ta’lim-tarbiyasi masalalariga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish takliflarini ishlab chiqish lozim. Xotin-qizlar bandligini ta’minlash – masalasida tadbirkorlarga preferensiyalar taqdim qilinishi maqsadga muvofiq, ya’ni xodimlari umumiylar sonining 60% dan ortig‘ini ayollar tashkil qiladigan tadbirkorlik subyektlariga, tizimda xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarni kasb-

hunarga o'rgatish kurslarini ochgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish subyektlariga maqsadli soliq imtiyozlarini taqdim qilish orqali oila institutini yanada mustahkamlash va iqtisodiy farovonligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ijtimoiy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtida jamiyatimiz rivoji uchun, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda oilada milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an'analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarini ilg'or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an'analar bilan uyg'unlashtiruvchi tabiiy makondir. O'zbekiston oilasi insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma'noda jamiyatda ustuvor bo'lishi va har bir fuqaro tomonidan uni ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma'rifat mifikabini o'taydi.

Yangi O'zbekiston umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, davlat tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanishi uchun ma'naviy qo'rg'on rolini o'ynaydigan ijtimoiy institut bo'lib to'liq shakllangan. Yangi O'zbekiston oilasi "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan tamoyillarni fuqarolar ongiga singdirish uchun qulay bo'lgan mafkuraviy muhitni shakllantirmoqda. Yangi O'zbekiston oilasi xalqimizning ma'naviy boyliklari, jahon sivilizatsiyasining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashgan va shu asnoda har tomonlama barkamol sog'lom avlodni tarbiyalovchi maskan bo'lishi uchun davlatning barcha ijtimoiy sohadagi islohotlari shu masalaga qaratilgan.

Shuningdek, dissertatsiyada jamiyatni modernizatsiyalash, oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasi hamda oila instituti transformatsiyasi jarayonlarida duch kelinayotgan muammolar, sotsiologik tadqiqotlar asosida aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA

Jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida oilaviy munosabatlarning o'zgarish dinamikasi yuzasidan olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi umumiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Oila va oilaviy munosabatlar insoniyat tarixi bilan rivojlanib kelayotgan ijtimoiy holat bo'lib, tarix fani nuqtai-nazaridan ibtidoiy jamiyatlardagi matriarxat, poligamiya, poliginiya ko'rinishida talqin qilingan bo'lsa, iudaizm, xristianlik, islam kabi diniy nuqtai-nazarda oila va oilaviy munosabatlar ilohiy tartibotlar bo'yicha dastlabki oilalar va oilaviy tartibotlar Odam Ato a.s. va Momo Havodon boshlanganligini e'tirof etadi. Ushbu qarashlar ilohiy kitoblar bo'lmish Tavrot, Injin va Qur'oni Karimda keltirilgan.

2. Oila va oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ilk yondashuvlar G'arbdan deyarli besh yuz yil oldin Sharqda mufassal ishlab chiqilgan. Oilaviy munosabatlar Sharqda dastlab, Zardushtiylik dini arkonlari bilan tartibga solingan bo'lsa, Islom dini kirib kelishi bilan oila va oilaviy munosabatlar tartibotlari o'zgarib, islam huquqi bilan tartibga solingan. O'rta asrlarda

Movarounnahrlik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino asarlarida oila, nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi kabi masalalar keng yoritilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Koshifiy, Jaloliddin Devoniy, Muhammad Sa’diy Qoshg‘ariylarning asarlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solish masalasi tizimli ishlab chiqilgan.

3. Modernizatsiya ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlariga emas, balki zamonaviy davriga xosdir. Odamlar xalq bo‘lishidan oldin jamoa bo‘lib yashash zarur ekanligini bilmagan. Davrlar o‘tishi bilan ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy hayot va jamoa bo‘lib yashash lozimligini tushunishgan. ularning birinchi jamoalari «oil» bo‘lgan. Oila jamoalari asta-sekin rivojlanib, urug‘-qabila jamoasiga, keyinchalik millat-elatlarga aylanib xalq bo‘lganlar. Bunday hodisani ro‘y berishi albatta, modernizatsiya bilan uzviy bog‘liq.

4. Oilaviy munosabatlardagi muammolarni yechishda ijtimoiy ishning professional faoliyatining roli juda muhimdir. Jamiatni modernizatsiya qilish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor qadriyat sifatida maydonga chiqadi. Bu o‘z navbatida, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta’lim, bandlik, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish natijasida erishish mumkin. O‘zbekiston aholisi har yiliga deyarli bir million kishiga ortib borayotganligini hisobga olib, davlat ijtimoiy siyosatini to‘liq amalga oshirish uchun kuchli iqtisodiyot zarur.

5. Oilaviy munosabatlarda «Oilaviy birdamlik» va “«Oila baxtlilik indeksi»ning 8 ta ko‘rsatkichi farovon hayotga erishish uchun xizmat qiladi. Bu formulaga oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, iqtisodiy farovonlikni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, ta’lim tizimini takomillashtirish, bandlikni ta’minalash, oilaviy munosabatlardagi muammolarni ijobjiy hal qilish, oilaviy birdamlikni mustahkamlash kabilardir. «Oila baxtlilik indeksi» va «oilaviy birdamlik» formulasi muntazam ravishda ijtimoiy hayotga moslashish va yangilanishni talab etadi.

6. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minalash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida mahalladan xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim shakllantirilgan. Biroq, 2024-yil 8 oyda 33 mingdan ortiq oila ajrashgan, 25 mingga yaqin bolalar ota yoki onaning mehridan mahrum bo‘lgan. Bu borada tuman va shaharlardagi “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markaz”lari ishini yetarli darajada deb bo‘lmaydi. Ushbu markazlarni yanada faollashtirish uchun ularni O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tizimiga kiritish davr talabiga aylangan. Ushbu markaz “Mahalla yettiligi” prinsipiiga mos bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy, psixologik, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ va regulyativ (boshqaruv) funksiyalarini to‘liq amalga oshirsa ajrimlar sonini kamaygan bo‘lar edi.

7. Oila institutining jamiyatdagi barqarorligini ta’minalash uchun oilalarning iqtisodiy barqarorligi masalasida oqibatlar bilan emas, sabablar (ishsizlik,

reproduktiv salomatlik) bilan kurashish lozim. Oilalarning byudjeti bozordagi narxlar konyukturasiga asosan qayta ko'rib chiqqan holda, farzandlar ta'limgartarbiyasi masalalariga ko'proq mablag' yo'naltirish takliflarini ishlab chiqish lozim.

8. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash – masalasida tadbirkorlarga preferensiyalar taqdim qilinishi maqsadga muvofiq, ya'ni xodimlari umumiylar sonining 60% dan ortig'ini ayollar tashkil qiladigan tadbirkorlik subyektlariga, tizimda xotin-qizlar va voyaga etmaganlarni kasb-hunarga o'rgatish kurslarini ochgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish subyektlariga maqsadli soliq imtiyozlarini taqdim qilish yosh oilalarni mustahkamlash va iqtisodiy qiyinchiliklar sababli ajrimlarni oldi olingan bo'lar edi.

9. An'anaviy oilaviy qadriyatlar – er-xotinning nikohi, ota-onas tarbiyasi mustahkamligi, uning mavqeい o'sishi, kasbiy faoliyat, shaxsiy va moddiy mustaqillik kabi boshqa qadriyat yo'nalishlariga o'zgarmoqda. Oilaning ijtimoiy institut sifatida inqirozi, nikoh munosabatlari institutining degradatsiyasida, xususan, FHDYO organlaridan ro'yxatdan o'tmagan nikohlar sonining ko'payishi, noan'anaviy nikoh turlari (fuqarolik nikohi)ning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

10. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ajrashgan ota-onalarning farzandlari aksariyat holatda ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha o'z tengqurlari, sinfdoshlaridan ancha orqada qolgani kuzatildi. Oila dinamikasi va moliyaviy ahvolning sezilarli darajada o'zgargani sabab, ajrashgan ota-onalarning bolalari boshqalarga nisbatan jinoyatchilikka moyilligini ortishiga sabab bo'lmoqda. Ajrashish oilalarning moddiy turmush tarziga salbiy ta'sir o'tkazib, ikki shaxs o'rtasida taqsimlangan ro'zg'or bir kishi zimmasiga tushishini anglatadi. Bunda, aksariyat ayollarni va qisman erkaklarning turmush darjasini pasayib, bu salbiy holat, o'z navbatida, jamiyat va davlat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada, kambag'allikni yuzaga kelishiga sharoit yaratadi. Ajrashish mehnat unumdarligiga ham salbiy ta'sir o'tkazib, unda ajrashayotgan xodimlar samaradorligi tushib, prezenteizm, stress, xavotir va salomatlik xavfini yuqori darajada his qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.20/30.12.2019.S.23.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ АКАДЕМИЯ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ
ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

РАЗЗАКОВА НАРГИС ЮЛДАШЕВНА

**ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЙ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В
УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА**

22.00.02 – Социальные институты, социальная структура и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ

**Диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по СОЦИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент– 2025

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам (PhD)
зарегистрирована за Вышей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики
Узбекистан за номером В2020.3.PhD/S77**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)
размещен на веб-странице Научного совета (www.dba.uz), на сайте Национального агентства
информации Узбекистан (www.aza.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET»
(www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Латипова Нодира Мухтарджановна
доктор социологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Матибаев Тошиулат Болтабоевич
доктор социологических наук, профессор

Нурматова Мукаррам Ахмедовна
доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

**Республиканский институт изучения
общественного мнения «Ижтимоий фикр»**

Защита диссертации состоится «6» сентября 2025 г. в 9.00 часов на заседании Научного совета DSc.20/30.12.2019.S.23.02 по присуждению ученых степеней при Академия государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 45). Административное здание Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан 11 этаж, 1104 зал конференций. Тел.: (71) 232-60-34; (71) 232-61-04; e-mail: info@dba.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственного политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 368) (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 45. Тел.: (71) 232-60-34; факс: (71) 232-61-04.

Автореферат диссертации разослан «21» августа 2025 г.
(протокол реестра рассылки № 21/2 от «21» августа 2025 г.)



М.Б. Бекмурадов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
социологических наук, профессор

Ш.М. Содикова

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
социологических наук, профессор

Т.Б. Матибаев

Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор социологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Население мира составляет более 8,17 млрд человек. Из них 1,8 млрд состоят в браке, и в настоящее время укрепление института семьи посредством исследования семейных отношений становится одной из самых актуальных проблем. По данным, средний размер семьи на Земле составляет около 4,5 человек, включая родителей и детей¹. Однако в условиях укрепления института семьи сохраняется естественная потребность в проведении научных исследований по изучению положения супружеских пар в семье, их взаимопонимания, эмоциональной близости, роли в семье, межличностных и семейных отношений, уровня взаимодействия.

В ведущих зарубежных научных центрах и высших образовательных учреждениях мира проводятся научные исследования по изучению факторов, обеспечивающих устойчивость семьи, в частности, семейных отношений. Проводятся специальные исследования по сравнительному анализу образа жизни детей и молодежи в семейных отношениях на национальном и международном уровнях, эффективности государственного, негосударственного и частного секторов в оказании услуг семье и их взаимодействия, методов и механизмов поддержки семьи, трансформации исторических закономерностей и демографических функций семьи в русле современных процессов.

В Новом Узбекистане укрепление института семьи, создание в ней здоровой среды, достижение семейного благополучия возведены в ранг государственной политики, создана необходимая нормативно-правовая база для формирования и стабилизации адекватного отношения молодежи к национальным ценностям. Поставлены важные задачи по обеспечению прочности семьи на основе концептуальной идеи «проведения единой государственной политики, направленной на укрепление основ института семьи, который является для нас священным, и, в первую очередь, воплощения в жизнь идеи «Здоровая семья – здоровое общество»². В Узбекистане, вступившем в новый этап развития, стремительно развиваются новые социально-политические отношения. Это имеет большое научное и практическое значение в формировании новой социальной среды в обществе, установлении интеллектуальных, соответствующих времени и характерных для общепризнанных тенденций мирового сообщества семейных отношений, социологическом анализе динамики ее изменения.

Данная диссертация в известной степени служит выполнению задач, определенных в Конституции Республики Узбекистан, Законах Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия», «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», в Указах Президента

¹ <https://www.worldometers.info/world-population/>

² Выступление Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса. // <https://president.uz/uz/lists/view/111>

Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-5938 «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» от 18 февраля 2020 года, в Постановлениях №ПП-4185 «О дополнительных мерах по усилению социальной защиты детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей» от 11 февраля 2019 года, №ПП-3808 «Об утверждении Концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан» от 26 июня 2018 года³ и других нормативно-правовых актах, связанных с данной темой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II «Дальнейшее углубление демократических реформ, формирование гражданского общества, разработка научных основ модернизации и либерализации национальной экономики».

Степень изученности проблемы. Поскольку социальные процессы в обществе находятся в постоянном движении, социум также находится в перманентном развитии. В результате такого развития различные нововведения в определенной степени влияют и на межличностные отношения в обществе и возникают условия модернизации. Такие условия модернизации, в свою очередь, влияют на семейные отношения, и можно наблюдать динамику изменений в отношениях между членами семьи.

Вопрос регулирования семейных отношений всегда был первостепенным для Востока. Семейно-брачные отношения отражены в трудах восточных мыслителей Абу Насра Фараби, Абу Рейхана Беруни, Абу Али ибн Сины и других. Также многие вопросы, такие как семья, межличностные отношения в семье, образование, родительские обязанности и обязанности детей, подробно описаны в таких произведениях, как «Кутадгу Билиг» Юсуфа Хоса Ходжиба, «Кобуснома» Кайковуса, «Гулистон», «Бустон» шейха Саади, «Бахористан» Абдурахмона Джами, «Махбуб уль-кулуб» Алишера Навои, «Ахлоки Мухсини» Хусейна Воиза Кашифи, «Ахлоки Джалоли» Джалалуддина Девони и «Адаб-ас Салихин» Мухаммада Саади Кашгари⁴.

³ Нормативные правовые акты с названиями приведены в списке литературы диссертации.

